

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**NURGALIYEV NAJMIDDIN ABDUMAJITOVICH**

**DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN QUMLI CHO‘L TUPROQLARINING  
HOLATI VA ULARNI YAXSHILASH YO‘LLARI  
(Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani To‘dako‘l massivi misolida)**

**03.00.13-Tuproqshunoslik**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on biological sciences**

**Nurgaliyev Najmiddin Abdumajitovich**

Degradatsiyaga uchragan qumli cho‘l tuproqlarining holati va ularni yaxshilash yo‘llari (*Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani To‘dako‘l massivi misolida*).....3

**Нургалиев Нажмиддин Абдумажитович**

Состояние деградированных пустынных песчаных почв и пути их улучшения (*на примере Тудакульского массива Каравулбазарского района Бухарской области*).....21

**Nurgaliev Najmiddin Abdumajitovich**

The state of degraded sandy desert soils and their paths improvements (*using the example of the Tudakul massif of the Aravulbazar district of the Bukhara region*).....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**NURGALIYEV NAJMIDDIN ABDUMAJITOVICH**

**DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN QUMLI CHO‘L TUPROQLARINING  
HOLATI VA ULARNI YAXSHILASH YO‘LLARI  
(Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani To‘dako‘l massivi misolida)**

**03.00.13-Tuproqshunoslik**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy atesstatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/B1225 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (nauka@nuu.uz.) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (<http://www.ziynet.uz>) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nabiyeva Gulchehra Mirergashevna**  
biologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Artikova Hafiza Tuymurodovna**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Ruzmetov Maksud Ismoilovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya fakulteti binosi, 4-qavat, 403-xona Tel.: (+99871) 246-67-72, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 133-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, Tel.: (+99871) 246-67-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**Jabbarov Z.A.**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash raisi, b.f.d., professor

**Maxkamova D.Yu.**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, b.f.f.d., dotsent

**G.T.Djalilova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda global darajada iqlimning o'zgarishi, haroratni oshishi, cho'llanish jarayonining kuchayishini inobatga olib, degradatsiyaga uchragan, o'simlik qoplami siyraklashgan yaylov va adir mintaqa ekotizimlarini fitomelioratsiya qilish orqali yaxshilash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mana shu kechiktirib bo'lmaydigan muammolarning yechimini hal etish, cho'llanishga qarshi kurashish, degradatsiya jarayonlarini oldini olish hamda yaylov yer maydonlaridan samarali foydalanish zarur. Dunyodagi eng yirik foydalanadigan yerlar yaylov maydonlariga to'g'ri keladi. FAO ning ma'lumotlariga ko'ra, umumiy yer maydonining 23,4% doimiy yaylov va o'tloqlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi yer maydonlarining qariyb 34% dan oqilona foydalanmaslik, yuqori antropogen ta'sir va ortiqcha chorva mollarini boqish natijasida degradatsiyaga uchragan<sup>1</sup>. Shunday ekan dunyoning barcha mintaqalarida tarqalgan yaylov yerlaridagi tuproqlarning unumdorligini saqlash, tiklash hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda yaylov tuproqlar holatini, xossa-xususiyatlarini o'rganish, yaylov yerlaridan samarali foydalanish, ularning tabiiy bioxilma-xilligini buzilishiga yo'l qo'ymaslik, tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash, uni muhofaza qilish, atrof-muhitning ekologik holatini yaxshilash, qurg'oqchilik jarayonlarini yumshatish, degradatsiya jarayonlarini oldini olish bo'yicha bir qancha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tuproqning agrokimyoviy xossalariga, biologik faolligiga, yaylov ekinlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga hamda unumdorligini oshirishda qo'llaniladigan agrotexnologiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz turli landshaftlaridagi yaylov yerlaridan samarali foydalanish, tabiiy bioxilma-xillikni saqlash, degradatsiya jarayonlarini oldini olish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 20 maydagi 538-sonli qabul qilingan "Yaylovlar to'g'risida"gi Qonuni<sup>2</sup> da bir qator vazifalar, jumladan, yaylovlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish maqsadida yaylovlarga tushadigan eng ko'p yuklama normasini hisobga olish, yaylovlardan foydalanish normalari hamda muddatlariga rioya etish, tuproq unumdorligini tiklash, qurg'oqchilik jarayonlarini yumshatish hamda yaylovlardan oqilona foydalanish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli, respublikamiz yaylovlarini rivojlantirishda cho'l yaylovlarining unumdorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish, hudud tabiiy-iqlim sharoitlarida degradatsiyaga uchragan yaylovlardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagi PQ-4204-sonli "O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori<sup>3</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-sonli

<sup>1</sup> <https://bigenc.ru/c/pastbishche-12b000>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 20 maydagi 538-son qabul qilingan "Yaylovlar to'g'risida"gi Qonuni.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagi PQ-4204-sonli "O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

“Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori<sup>4</sup> hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Yaylov sifatida foydalaninladigan degradatsiyaga uchragan cho‘l tuproqlarning xossa-xususiyatlarini o‘zgarishi va ularni holatini yaxshilash, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha bir qator ilmiy-tadqiqotlar xorijiy olimlardan Yiqiang Dong., Helong Yang., A.Novak, Yiben Cheng., N.Raddadi, S.S.Shaburyan, K.N.Kulik, K.V.Mashtikov, N.P.Chijikova, I.A.Bayrakov, V.G.Lazareva, hamda respublikamiz olimlaridan L.A.Gafurova, G.M.Nabiyeva, N.Namozov, A.M.Razakov, N.Z.Adizova, H.T.Artikova, E.Z.Shamsutdinova, Sh.M.Bobomurodov, M.Karimov, A.K. Karinbayev, B.V.Bazarov, M.I.Ruzmetov, K.M.Mirzajanov, K.M.Ibragimov, G.T.Axrorova, O.Rahmonov, M.Sattorova, B.A.Rayimbekov, A.A.Xamidov, B.I.Kazbekov, M.A.Yusupova, M.I.Quldashevalar tomonidan olib borilgan. Ammo, qumli cho‘l tuproqlarning holatini saqlash va qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan yaylov o‘simliklarini tanlab olish va ularni ko‘paytirish orqali tuproqlar unumdorligini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘limning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-4721035462 raqamli “Cho‘l ozuqabob ekinlarining yangi navlarini rayonlashtirish uchun ularning sho‘rlanishga moslashish salohiyatini baholagan holda raqamli geoinformatsion bankini yaratish” (2022-2024yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** degradatsiyaga uchragan qumli cho‘l tuproqlarining holati va ular unumdorligini yaxshilashga yo‘naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Tadqiqot hududida tarqalgan qumli cho‘l tuproqlarning morfologik, agrokimyoviy, kimyoviy, fizikaviy va biologik xossalarini degradatsiya jarayoniga bog‘liq holda tahlil qilish;

hududda tarqalgan qumli cho‘l tuproqlarining qurg‘oqchilik turlari, darajasi va eroziya ta‘sirida fizikaviy, kimyoviy hamda biologik xossalarining o‘zgarishini aniqlash;

ozuq elementlari, biologik faolligi va NDVI indekslarini aks ettiruvchi xaritalar asosida hudud tuproqlar holatini monitoring qilish;

qumli cho‘l tuproqlariga Qorovulbozor tumani va Buxoro viloyati misolida yaylov sig‘imiga ta‘sirini o‘rganish, shuningdek degradatsiya jarayonlarini keltirib chiqaruvchi omillarni baholash mezonlarini ishlab chiqish;

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-sonli “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini yaxshilashda yaylov o'simliklariga turli variantlarda "Ekogumin" organik o'g'it hamda "Gidrogel" polimer moddasini qo'llash orqali tuproqning agrokimyoviy xossalari, biologik faolligi, o'simliklar biomassasining o'zgarishi hamda ular o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni tahlil qilish;

degradatsiyaga uchragan qumli cho'l tuproqlarining holatini yaxshilash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha cho'l yaylovlaridan foydalanuvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani "To'dako'l massivi" da tarqalgan qumli cho'l tuproqlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** iqlim sharoiti, qurg'oqchilik indeksi, biologik faolligi, "Ekogumin" organik o'g'iti hamda "Gidrogel" polimer moddasi, xaritalar hamda cho'l o'simliklari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo'yicha amalga oshirilgan bo'lib, izlanishlarda geografik, genetik, tarixiy-taqqoslash, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik hamda profil usullardan foydalanilgan. Jumladan, tuproqning kimyoviy tahlillari "Руководство по химическому анализу почв" qo'llanmasi, qumli cho'l hududida tarqalgan o'simliklar soni va uning biomassasini M.I.Ruzmetov "Yaylovlar geobotanikasi" qo'llanmasi, tuproqdagi mikroorganizmlar M.Zvyaginsev «Методы почвенной микробиологии и биохимии» qo'llanmasi, tuproqdagi fermentlar faolligi F.X.Xaziyev "Методы почвенной энзимологии" qo'llanmasi, kartografik xaritalar ArcGIS 10.8 dasturida amalga oshirildi. Olingan natijalarning statistik tahlili Excel STAT interfeysida hisoblangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qumli cho'l tuproqlarida sodir bo'lgan degradatsiya jarayoni natijasida tuproqning fizikaviy, agrokimyoviy xossalari, mikrobiologik va fermentlar faolligiga ta'siri hamda ular o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar ochib berilgan;

iqlim ko'rsatkichlari asosida tadqiqot hududidagi qurg'oqchilik turlari va darajasi aniqlangan;

yaylov o'simliklariga "Ekogumin" organik o'g'iti, "Gidrogel" polimer moddasi qo'llash orqali degradatsiyaga uchragan qumli cho'l tuproqlarning agrokimyoviy, fizikaviy xossalari, biologik faolligi yaxshilanishi va o'simlik biomassasining ko'payishi asoslangan;

cho'l hududlarining yaylov yerlariga degradatsiya jarayonlarini keltirib chiqaruvchi omillarni baholash mezonlari takomillashtirilgan;

GATning interpolyatsiya usulidan foydalangan holda tadqiqot hududida tarqalgan gumus, azot, fosfor elementlar aks ettirilgan kartografik ma'lumotlar va hududda tarqalgan o'simliklar qoplaminig holatini aks ettiruvchi NDVI indekslar maydoni aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qumli cho'l tuproqlarning qurg'oqchilik indeksi ishlab chiqilgan hamda shamol eroziyasini oldini oluvchi yaylov o'simliklari (izen, teresken, cho'g'on va keyreuk) ekstremal cho'l sharoitiga moslashtirilgan;

qumli cho‘l tuproqlari unumdorligini oshirishda agrobiotexnologiya qo‘llash asosida kimyoviy, fizikaviy xossalari, biologik faolligining yaxshilanishi va yaylov o‘simliklari hosildorligining oshishi aniqlangan;

ozuqa elementlar va NDVI indeklari aks ettirilgan elektron xaritalar ishlab chiqilgan;

qumli cho‘l tuproq hududlarida yaylov o‘simliklariga agrotexnologiya (Ekogumin organik o‘g‘iti hamda Hidrogel polimer moddasi) qo‘llanilganda tuproqda gumus 0,47-0,50%, biologik faolligi 2 barobar, o‘simlik quruq massasi 1,35-1,60 s/ga ya‘ni 0,25 s/ga ortgan, rentabellik darajasi esa 11,2-22,8% ga teng ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi laboratoriya tajribalari zamonaviy uslub va vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, olingan natijalar yangi statistik dasturlar asosida amalga oshirilganligi, tadqiqot natijalari xorijiy tadqiqot natijalari bilan taqqoslanganligi, natijalarni ishlab chiqarishga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarini xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan belgilangan davriy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, o‘rganilgan hudud tuproqlarining xossa-xususiyatlari, biologik faolligining yaylov o‘simliklariga agrobiotexnologiya qo‘llash orqali tuproq xossalari va o‘simlik biomassasi o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqliklar, qurg‘oqchilik turlari, darajasi, degradatsiya jarayonlarini keltirib chiqaruvchi omillarni baholash mezonlari, gumus va oziqa elementlari aks ettirilgan kartografik ma‘lumotlar va hududda tarqalgan o‘simliklar qoplaminig holatini aks ettiruvchi NDVI indeklari hisobiga ko‘ra tematik xaritalar natijasida ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, qumli cho‘l tuproqlar unumdorligini oshiruvchi “Ekogumin” va “Hidrogel” ni qo‘llash asosida Buxoro viloyati Qoovulbozor tumanida qurg‘oqchilikka mos shamol eroziyasini oldini oluvchi yaylov o‘simliklari (izen, teresken, cho‘g‘on va keyreuk) moslashtirilgan, ozuqa elementlar va NDVI indeklari aks ettirilgan xaritalar ishlab chiqilgan bo‘lib, yaylov tuproqlarining xossa-xususiyatlari yaxshilanishiga, yaylov o‘simliklarining hosildorligi va biomassasini oshishiga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar, hudud tuproqlaridan samarali foydalanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani “Asadbek zamini” fermer xo‘jaligi qumli cho‘l tuproqlarini unumdorligini saqlash va oshirishda “Ekogumin” organik o‘g‘iti hamda “Hidrogel” polimer moddasining ta‘siri bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qurg‘oqchilik va cho‘llanishni oldini olish, ekologik holatini yumshatish, tuproqlarning xossa-xususiyatlarini o‘rganish hamda qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan o‘simliklar tarqalish areali, o‘simliklarning biologik xossalari aks ettirilgan “Turli tuproq sharoitida cho‘l oziqabob ekinlarining yangi navlarini rayonlashtirish uchun yaylov o‘simliklarining tasnifiy ko‘rsatkichlari” nomli dasturiy ta‘minoti

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi Vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 27 maydagi 05/05-02-357 son ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur dasturiy ta‘minot orqali qumli cho‘l tuproqlarning xossalarini yaxshilash hamda tuproq eroziyasini oldini oluvchi yaylov o‘simliklar bazasini shakllantirishga erishilgan va tuproq unumdorligini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda undan foydalanish imkonini bergan;

Qumli cho‘l tuproqlarida shamol eroziyasini oldini olish, biologik faolligini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirish maqsadida yaylov o‘simliklariga “Ekogumin” organik o‘g‘iti hamda “Gidrogel” polimer moddasini qo‘llash agrotexnologiyasi bo‘yicha “Degradatsiyaga uchragan qumli cho‘l tuproqlarining unumdorligini yaxshilash yo‘llari” nomli amaliy tavsiyanoma Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi Vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 27 maydagi 05/05-02-357 son ma‘lumotnomasi). Natijada, tuproq biologik faolligi va tuproq unumdorligi yaxshilanib, o‘simlik biomassasi 1,35-1,60 s/ga ya‘ni 0,25 s/ga ortgan, rentabellik darajasi esa 11,2-22,8% ni tashkil qilgan. Mazkur qo‘llanma qumli cho‘l tuproqlar unumdorligini saqlash, oshirish bo‘yicha ilmiy qo‘llanma sifatida xizmat qilgan;

GATning interpolyatsiya usulidan foydalangan holda tadqiqot hududida tarqalgan qumli cho‘l tuproqlarini gumus va oziqa elementlari aks ettirilgan kartografik ma‘lumotlar va hududda tarqalgan o‘simliklar qoplaminig holatini aks ettiruvchi NDVI indeksleri hisobiga ko‘ra tematik xaritalar Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani To‘dako‘l massivida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi Vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 27 maydagi 05/05-02-357 son ma‘lumotnomasi). Natijada, qumli cho‘l tuproqlar holati va degradatsiyaga uchraganlik darajasi bo‘yicha monitoring qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari asosida jami 5 ta, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta shu jumladan 1 ta amaliy tavsiyanoma va 1 ta O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomasi olingan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 3 ta xorijiy, 3 tasi respublika jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, 120 bet matn, 22 ta rasm, 19 ta jadval, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati, maqsadi va vazifalari, ob‘yekti va predmetlari, tadqiqotning respublika fan va

texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'limning ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning usullari va ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalar, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr e'tilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Cho'l mintaqasi tuproqlarining degradatsiyaga uchrashi, xossalarning o'zgarishi va unumdorligini yaxshilash yo'llari”** deb nomlangan birinchi bobida cho'l mintaqasida tarqalgan tuproqlar va ularning degradatsiyaga uchrashi va cho'l tuproqlarining degradatsiyaga uchrashi natijasida xossa-xususiyatlarini o'zgarishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda relyef xususiyatlari, tuproq hosil qiluvchi jinslar va namlik sharoitlariga bog'liq bo'lgan turli xil ekologik muammolarning paydo bo'lishi hamda tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar atroflicha chuqur tahlil qilingan va yetarlicha ilmiy fikrlar olingan.

Mavzu bo'yicha o'rganilgan adabiyotlarda cho'l mintaqasi tuproqlarining degradatsiyaga uchrashi, xossa-xususiyatlarining o'zgarishi va unumdorligini yaxshilash yo'llari bo'yicha fitomelioratsiya usulidan foydalanish, introduksiya qilish, yarim cho'l va cho'l zonalarida qurg'oqchilikka chidamli bo'lgan o'simliklardan foydalanish, biostimulyatorlarni qo'llash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Natijada, cho'l mintaqasiga mos keladigan cho'l ozuqabob ekinlariga agrobiotexnologiyalarni qo'llashda o'simlik biomassasiga, urug' hosili va tuproqlar unumdorligini yaxshilanishiga olib kelgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazilgan joyning tabiiy sharoitlari, tadqiqot materiallari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot hududining geografik joylashishi, gidrogeologik va gidrologik sharoitlari, hududining iqlimi, o'simliklar qoplami, tadqiqot hududining tuproqlari va tadqiqot uslublari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot hududi Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanida joylashgan “Asadbek zamini” fermer xo'jaligi tuproqlarida Cho'g'on (*Halothamnus subaphylla*), Izen (*Kochia prostrata*), Quyrovuq (*Salsola orientalis*), Teresken (*Ceratoides ewersmanniana*) kabi yaylov o'simliklarga “Ekogumin” organik o'g'iti hamda “Gidrogel” polimer moddasi qo'llanilgan. Tajriba 4 variant va 4 qaytariqda amalga oshirilgan. Bunda nazorat, Ekogumin 500 kg/ga, Gidrogel 60 kg/ga, Ekogumin 500kg/ga+gidrogel 60 kg/ga hisobida qo'llanilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududi tuproqlarining degradatsiyaga uchrashi va tuproq hossalari ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobi tadqiqot hududi tuproqlarining morfologik belgilari, degradatsiyaga jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar, qurg'oqchilik va eroziya ta'sirida fizikaviy, kimyoviy xossalari hamda biologik faolligining o'zgarishini o'rganishga doir tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tadqiqot hududi tuproqlarining gumus qatlam qalinligi 14-20 sm gacha, qurg'oqchilik natijasida tuproqlarning degradatsiyaga uchrashi gumusli qatlam qalinligining qisqarishiga olib kelgan. Bu tuproqlarni o'ziga xos xususiyatlaridan biri karbonat miqdorining kamligi karbonatlarninig yuqori chegarasi 50-60 sm

tashkil qilishi va gipsning yuqori chegarasi 150-170 sm lar atrofida chiqishi hamda yuqori qatlamida qatqaloqning hosil bo'lmashligi bilan ajralib turadi. Tuproqning ustki qatlamidagi rangi och kul rang, pastki qatlamlarga och malla rang va oqish kulrangga o'tishi aniqlandi. Tuproqda kechayotgan barcha jarayonlar ularning mexanik tarkibi bilan bog'liq bo'lib, tuproqlarning mexanik tarkibiga ko'ra, ustki qatlamlari qumloq, pastki qatlamlari esa qumlardan iborat.

Tadqiqot hududining qurg'oqchilik turlari va darajasi aniqlangan. 2013-yilda yillik yog'in miqdori 147,7 mm ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 93,6 mm, 2021-yilda 107,7 mm, 2022-yilda 122,3 mm ni tashkil etgan. Bu esa 2013-yilga nisbatan ya'ni 2018-yilda 54,1 mm, 2021-yilda 40,0 mm, 2022-yilda 25,4 mm ga kamaygan. Umumiy natijaga ko'ra qurg'oqchilikning quruq turidan giper quruq turiga aylanish ehtimoli yuqoriligi ko'rsatilgan.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, maksimal havo haroratining yillik yig'indisi 2018-yilda 9927<sup>0</sup>C, 2021-yilda 10320<sup>0</sup>C, 2022-yilda 10041<sup>0</sup>C ga ko'tarilgan, natijada qurg'oqchilik darajasini kuchayishiga sabab bo'lgan. Bu esa o'z navbatida tuproqlarning mexanik, fizik-kimyoviy, biologik xossa-xususiyatlariga ta'sir qilib o'simliklarning o'sish va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan.

Tahlil natijalariga ko'ra tadqiqot hududi tuproqlari 2013-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida shamolning maksimal tezligi 16,6-17,3 m/s oralig'ida bo'lgan ya'ni, shamol tezlik ko'rsatkichi ortgan, bu shamol eroziyasiga uchrash holatini ortishiga va 0,25; 0,25-0,5; 0,5-1,0; 1-2; 2-3 mm tuproq zarralarini eroziyaga uchrash imkoniyatini kuchaytirgan. Shu sababli oxirgi 10 yilda tadqiqot hududida tuproqdagi 0,25; 0,25-0,5; 0,5-1,0; 1-2; 2-3 mm kattalikdagi zarrachalarning eroziyaga uchraganligi, shamolning o'rtacha tezligida esa 0,25 mm li zarralarining eroziyaga uchraganligi o'rganilgan.

Tadqiqot hududida tarqalgan qumli cho'l tuproqlarning qurg'oqchilik va eroziya ta'sirida fizikaviy hamda kimyoviy xossalarning o'zgarishi tadqiqot hududi tuproqlarning mexanik tarkibi qumloq va qum tuproqlar bo'lib, fizik loy 5,1-10,8% tashkil etadi, solishtirma og'irligi o'rtacha 2,53-2,70 g/sm<sup>3</sup> oralig'ida, hajm og'irligi 1,46-1,61 g/sm<sup>3</sup>, g'ovakligi esa 37,2-43,8% ekanligi, sho'rlanish tipi xlorid-sulfatli va sulfat-xloridli, sho'rlanish darajasi kuchsiz sho'rlanganligi, tuproq muhiti neytraldan yuqori, ishqorli muhitda pH 8,1-8,8 oralig'ida, agrokimyoviy xossalarga ko'ra, shimoliy nuqtadan olingan tuproq kesmalarida N 0,022-0,045%, umumiy P 0,089-0,121%, K 0,62-0,74%, gumus 0,16-0,59% ni tashkil etgan bo'lsa, janubiy nuqtalarida umumiy N 0,014-0,032%, umumiy P 0,088-0,115%, K 0,58-0,63%, gumus 0,15-0,38% ni tashkil etgan.

Tadqiqot hududida tarqalgan qumli cho'l tuproqlarining qurg'oqchilik va eroziya ta'sirida biologik xossalarning o'zgarishi qora sho'ra o'simligining ildizi atrofi rizosferasida ammonifikatorlar 21x10<sup>5</sup>, spora xosil qiluvchilar 62x10<sup>3</sup>, aktinomitsetlar 8x10<sup>4</sup>, mikroskopik zamburug'lar 48x10<sup>3</sup>, oq bosh o'simligida ammonifikatorlar 27x10<sup>5</sup>, spora xosil qiluvchilar 26x10<sup>3</sup>, aktinomitsetlar mavjud emas, mikroskopik zamburug'lar 26x10<sup>3</sup>, qora saksovul o'simligida ammonifikatorlar 76x10<sup>4</sup>, spora xosil qiluvchilar 6x10<sup>3</sup>, aktinomitsetlar 6x10<sup>4</sup>, mikroskopik zamburug'lar 12x10<sup>3</sup>, cho'g'on o'simligida ammonifikatorlar 14x10<sup>5</sup>, spora xosil qiluvchilar 16x10<sup>3</sup>, aktinomitsetlar mavjud emas, mikroskopik zamburug'lar 1 gramm tuproqda 40x10<sup>3</sup> KXQB tashkil etgan.

Dissertatsiyaning “**Degradatsiyaga uchragan qumli cho‘l tuproqlarining unumdorligini yaxshilash yo‘llari va tematik xaritalar tuzish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida, qumli cho‘l tuproqlarining agrokimyoviy, fizikaviy, biologik xossalarini yaxshilash yo‘llari, tadqiqot hududi tuproqlarini baholovchi tematik xaritalar tuzish, tadqiqot hududi tuproqlarining yaylov sig‘imi va degradatsiya me‘zonlarini takomillashtirish hamda iqtisodiy samaradorligi va ishlab chiqarishga tavsiyalar berish bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, tabiiy yaylov tuproqlaridagi gumusning miqdori 0,47%, azot miqdori 0,29%, umumiy fosfor 0,12%, umumiy kaliy 0,61%, quruq qoldiq 0,113% bo‘lsa, tuproqning pH ko‘rsatkichi 8,3 ya‘ni kuchsiz ishqoriy darajada.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, barcha variant tuproqlarining 0-30 sm qatlamida gumus miqdori 0,47-0,50% ni, azot miqdori 0,035-0,042% ni, umumiy fosfor 0,14-0,17% ni, umumiy kaliy 0,71-0,78% ni tashkil qilgan bo‘lsa, quruq qoldiq 0,116-0,190 oralig‘ida, pH ko‘rsatkichi kuchsiz ishqoriy ya‘ni 8,1-8,3 ni tashkil qilgan.

Tadqiqot hududdi tuproqlarining unumdorligini saqlash, agrokimyoviy va kimyoviy xossalarini yaxshilash, tuproqda organik qoldiq toplanishiga erishish maqsadida fitomelioratsiya ishlari olib borildi. Cho‘l sharoitida Cho‘g‘on (*Halothamnus subaphylla*) o‘simligining xashak hosili 1-yilda 3,1 s/ga, 2-yilda 5,2 s/ga, 3-yilda 13,5 s/ga; Izen (*Kochia prostrata*) o‘simligining xashak hosili 1-yilda 2,5 s/ga, 2-yilda 4,5 s/ga, 3-yilda 12,5 s/ga; Quyrovuq (*Salsola orientalis*) o‘simligining xashak hosili 1-yilda 2,5 s/ga, 2-yilda 4,2 s/ga, 3-yilda 10,4 s/ga; Teresken (*Ceratoides ewersmanniana*) o‘simligining xashak hosili 1-yilda 2,3 s/ga, 2-yilda 4,1 s/ga, 3-yilda 8,6 s/ga ni tashkil qildi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Tadqiqot hududida tarqalgan qumli cho‘l tuproqlarida ekilgan yaylov ozuqabob o‘simliklarining biometrik kuzatuvlari

№	O‘simlik nomlari	Xashak hosili, s/ga			Yer usti yashil biomassasi, s/ga		
		1-yil	2-yil	3-yil	1-yil	2-yil	3-yil
1	Cho‘g‘on ( <i>Halothamnus subaphylla</i> )	3,1±0,11	5,2±0,13	13,5±0,16	41,2±0,27	70,1±0,31	100,2±0,36
2	Izen ( <i>Kochia prostrata</i> )	2,5±0,09	4,5±0,11	12,5±0,14	50,4±0,24	70,3±0,27	100,8±0,34
3	Quyrovuq ( <i>Salsola orientalis</i> )	2,5±0,10	4,2±0,12	10,4±0,13	40,1±0,25	70,2±0,29	90,4±0,31
4	Teresken ( <i>Ceratoides ewersmanniana</i> )	2,3±0,08	4,1±0,10	8,6±0,11	30,3±0,22	50,1±0,24	70,6±0,25

Cho‘g‘on (*Halothamnus subaphylla*) o‘simligining yer usti yashil biomassasi 1-yilda 41,2 s/ga, 2-yilda 70,1 s/ga, 3-yilda 100,2 s/ga; Izen (*Kochia prostrata*) o‘simligining yer usti yashil biomassasi 1-yilda 50,4 s/ga, 2-yilda 70,3 s/ga, 3-yilda esa 100,8 s/ga; Quyrovuq (*Salsola orientalis*) o‘simligining yer usti yashil biomassasi 1-yilda 40,1 s/ga, 2-yilda 70,2 s/ga, 3-yilda 90,4 s/ga; Teresken

(*Ceratoides ewersmanniana*) o'simligining yer usti yashil biomassasi 1-yilda 30,3 s/ga, 2-yilda 50,1 s/ga, 3-yilda esa 70,6 s/ga ni tashkil qildi.

Kuzatuvlar natijasiga ko'ra, o'rtacha xashak hosili 3 yilda Cho'g'on (*Halothamnus subaphylla*) o'simligida 0,7 s/ga, Izen (*Kochia prostrata*) o'simligida 0,6 s/ga, Quyrovuq (*Salsola orientalis*) o'simligida 0,5 s/ga, Teresken (*Ceratoides ewersmanniana*) o'simligida 0,5 s/ga bo'lsa, yer usti yashil biomassasi esa Cho'g'on (*Halothamnus subaphylla*) o'simligida 70,5 s/ga, Izen (*Kochia prostrata*) o'simligida 73,8 s/ga, Quyrovuq (*Salsola orientalis*) o'simligida 67,2, s/ga, Teresken (*Ceratoides ewersmanniana*) o'simligida 50,3 s/ga bo'lgan. 15 yillik o'rtacha yashil biomassa 1,35-1,60 s/ga ni tashkil qilgan.


Qumli cho'l tuproqlarining fizikaviy xossalarini yaxshilash bo'yicha degradatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda qumli cho'l tuproqlarining umumiy fizik xossalarini o'rganish, shuningdek, olib borilgan tadqiqot natijalarida tabiiy yaylov tuproqlarining hajm og'irligi 1,51 g/sm<sup>3</sup>, solishtirma og'irlik 2,60 g/sm<sup>3</sup> ni, umumiy g'ovakligi esa 41,9 % tashkil qilgan. Tahlil natijalariga ko'ra nazoratga variantlariga nisbatan Ekogumin 500 kg/ga+gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantda hajm og'irligi 1,50 g/sm<sup>3</sup> dan 1,45 g/sm<sup>3</sup> gacha yaxshilanganligi g'ovakligi esa 43,8% dan 45,9% ga oshganligi kuzatildi.

Tadqiqot hududi qumli cho'l tuproqlarining biologik xossalarini yaxshilash yo'llari o'rganilgan. Mikrobiologik faollikni o'rganish, nazorat variantlarida kechayotgan mikrobiologik jarayonlarni taqqoslash maqsadida tabiiy yaylovdan ham namuna olingan. Tabiiy yaylovda ammonifikator faolligi 12x10<sup>5</sup>, spora hosil qiluvchilar 6x10<sup>3</sup>, mikroskopik zamburug'lar 12x10<sup>3</sup> KXQB ni tashkil qilgan, aktinomitsetlar uchramagan.

Cho'g'on (*Halothamnus subaphylla*), Izen (*Kochia prostrata*), Quyrovuq (*Salsola orientalis*), Teresken (*Ceratoides ewersmanniana*) o'simliklarining nazorat variantida ammonifikatorlar 14x10<sup>5</sup>-17x10<sup>5</sup>, Ekogumin 500 kg/ga qo'llanilgan variantida 23x10<sup>5</sup>-27x10<sup>5</sup>, Gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantida 14x10<sup>5</sup>-17x10<sup>5</sup>, Ekogumin 500 kg/ga+gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantida 41x10<sup>5</sup>-41x10<sup>5</sup> KXQB ni tashkil qilgan. Spora hosil qiluvchilar nazorat variantida 7x10<sup>3</sup>-9x10<sup>3</sup>, Ekogumin 500 kg/ga qo'llanilgan variantida 16x10<sup>3</sup>-19x10<sup>3</sup>, Gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantida 11x10<sup>3</sup>-14x10<sup>3</sup>, Ekogumin 500 kg/ga+gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantida 25x10<sup>3</sup>-31x10<sup>3</sup> KXQB ni tashkil qilgan. Aktinomitsetlar nazorat variantida uchramadi, Ekogumin 500 kg/ga qo'llanilgan variantida 5x10<sup>4</sup>-6x10<sup>4</sup>, Gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantida ham uchramadi, Ekogumin 500 kg/ga+gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantida 7x10<sup>4</sup>-8x10<sup>4</sup>. Mikroskopik zamburug'lar nazorat variantida 13x10<sup>3</sup>-14x10<sup>3</sup>, Ekogumin 500 kg/ga qo'llanilgan variantida 20x10<sup>3</sup>-22x10<sup>3</sup>, Gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantida 11x10<sup>3</sup>-15x10<sup>3</sup>, Ekogumin 500 kg/ga+gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantida 34x10<sup>3</sup>-40x10<sup>3</sup> KXQB ni tashkil qilgan.


Yaylov o'simliklarining nazorat variantida katalaza fermentining faolligi 5 gramm tuproqda 3,1-3,9 ml O<sub>2</sub>/g.tuproq, Ekogumin 500 kg/ga qo'llanilgan variantida 5,2-5,9 ml O<sub>2</sub>/g.tuproq, Gidrogel 60 kg/ga qo'llanilgan variantida 4,8-

5,1 ml O<sub>2</sub>/g.tuproq, Ekogumin 500 kg/ga+gidrogel 60 kg/ga qo‘llanilgan variantida 5,7-6,1 ml O<sub>2</sub>/g.tuproqni tashkil qilgan (1-rasm).



### 1-rasm. Qumli cho‘l tuproqlaridagi fermentlar faolligining o‘zgarishi


Nazorat variantida invertaza fermentining faolligi 0,2 gramm tuproqda 5,9-6,3 mg glyukoza/g.tuproq, Ekogumin 500 kg/ga qo‘llanilgan variantida 7,6-7,7 mg glyukoza/g.tuproq, Hidrogel 60 kg/ga qo‘llanilgan variantida 6,1-7,2 mg glyukoza/g.tuproq, Ekogumin 500 kg/ga+gidrogel 60 kg/ga qo‘llanilgan variantida 7,8-7,9 mg mg glyukoza/g.tuproqni tashkil qilgan. Nazorat variantida ureaza fermentining faolligi 5 gramm tuproqda 6,5-7,2 mg NH<sub>3</sub>/g.tuproq, Ekogumin 500 kg/ga qo‘llanilgan variantida 8,1-8,6 mg NH<sub>3</sub>/g.tuproq, Hidrogel 60 kg/ga qo‘llanilgan variantida 7,6-8,1 mg NH<sub>3</sub>/g.tuproq, Ekogumin 500 kg/ga+gidrogel 60 kg/ga qo‘llanilgan variantida 8,5-8,7 mg NH<sub>3</sub>/g.tuproqni tashkil qilgan. Tadqiqot hududi tuproqlari tarkibidagi gumus miqdorini aks ettiruvchi tematik xaritada tuproqdagi gumus miqdorining tahliliga ko‘ra, tarkibida 0,33% dan 0,40% gacha gumus miqdoriga ega bo‘lgan maydon 31,4 ga ni, 0,40% dan 0,46% gacha gumus miqdoriga ega bo‘lgan maydon 128,66 ga ni, 0,46% dan 0,52% gacha gumus miqdoriga ega bo‘lgan maydon 390,83 ga ni, 0,52% dan 0,59% gacha gumus miqdoriga ega bo‘lgan maydon 1147,68 ga ni tashkil qilgani aniqlangan (2-rasm).



**2-rasm. Tadqiqot hududi tuproqlarining tarkibidagi gumus miqdorini aks ettiruvchi tematik xarita**

